

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
INGLIZ TILI FAKULTETI



MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI TAYYORLASH BO‘YICHA
YO‘RIQNOMA

70110901– Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va rasmiylashtirish bo'yicha yo'riqnoma Ingliz tili fakulteti kengashining ___ noyabrdagi №4-son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan

Mazkur yo'riqnoma Vazirlar mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 36-son qarori asosida tasdiqlangan Magistratira to'g'risidagi Nizomi asosida tayyorlandi

Tuzuvchilar: f.f.n. Sh.J.Shomurodova

f.f.n. G.H.Obruyeva

Taqrizchilar: p.f.d. U.U.Jumanazarov

filologiyafanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD. N.Sh.Amriddinova

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mustaqil bajariladigan ilmiy tadqiqot ishi sanaladi. Unda tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha aniq nazariy fikrlar bayon etiladi va ilmiy amaliy masalaning echimi izlanadi. Magistrantlarning o'quv va ilmiy faoliyati O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 36-son qarori asosida tasdiqlangan "Magistratira to'g'risidagi Nizomi" va boshqa meyoriy hujjatlar asosida tashkil etilganligi hamda monitoring qilinganligi bois magistrlik dissertatsiyasi ushbu hujjatlarda ko'rsatilgan tegishli bandlarga asoslangan holda yoziladi va rasmiylashtiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy natija hamda xulosalarni aks ettirishi, ichki yaxlitlikka ega bo'lishi, magistrantning ushbu fan sohasidagi bilim va ko'nikmalarini o'zida mujassam etishi lozim bo'ladi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozish murakkab ilmiy-ijodiy jarayon sifatida mukammal ilmiy tadqiqot o'takazilishini taqozo etadi. Dissertasiya tanlangan mavzu bo'yicha olib borilgan barcha amaliy ishlarni va qo'lga kiritilgan natijalarni o'zida aks ettirishi lozim. Shunga ko'ra, magistrnlarni tayyorlash oliy ta'limning muayyan mutaxassisliklar bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan hamda yuqoti malakali kadrlar va zamonaviy tadqiqot bazalariga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini to'laqonli shakllantirish uchun magistrant davlat ta'lim standartlarida belgilangan darajada fundamental va chuqurlashtirilgan bilimlar asosida mustaqil ilmiy-ijodiy fikr yuritishi hamda ilmiy-amaliy, ilmiy-tadqiqot va ilmiy pedagogik ish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bundan kelib chiqqan holda magistrant ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyati jarayonida uchraydigan hamda chuqur malakaviy bilimlarni talab etadigan vazifalarni aniqlash, bajarish, muammolarga echim topish kabi malakalarni egallagan bo'lishi kerak. Magistrant tadqiqot vazifasidan kelib chiqib, tadqiqot metodini tanlash, olingan natijalarni tahlil qilish, ularga ishlov berish, adabiyotlardagi materiallarni tahlil qilish hamda ularni to'liq tushunib etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bibliografik ishni to'g'ri yo'lga qo'yish, bajarilayotgan tadqiqoti yuzasidan amaliy ishlarni (maqola, tezis yozish, ilmiy amaliy konferensiyalarda ishtirok etish kabilar) bajarishi lozim.

MAVZUNI TANLASH VA ILMIY RAHBARNI TAYINLASH

Magistrlik dissertatsiyasi o'qish jarayonida magistratura talabasi egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari oliy ta'lim muassasalari kafedralarida kafedralarning professor-o'qituvchilari tarkibi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-tadqiqot va loyhalash muassasalari hoimlari tomonidan shakllantiriladi. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari, qoidaga ko'ra, dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifalarni hal etishga bag'ishlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan professorlar, fan doktorlari, dotsentlar, fan nomzodlari, OTM va tegishli tashkilotlarning yuqori malakali va tajribali mutaxassislari, shuningdek belgilangan tartibda magistrlik, ilmiy darajalar yoki ilmiy unvonlarga ega bo'lgan xorijiy mutaxassislardan tomonidan amalga oshiriladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasida ishlamaydigan xodimlarni unga ilmiy rahbar tayinlagan taqdirda, talabaga qo'shimcha ravishda tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tarkibidan ilmiymaslahatchi tayinlanadi.

Belgilangan talablarga muvofiq magistrlik dissertatsiyasini bajarish doirasida ilmiy rahbar bilan bir hil ma'suliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklatiladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasi xodimlari tarkibidan bo'lgan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchining magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha talabalar bilan ishlashi ularning oliy ta'lim muassasasida o'quv yili shaxsiy ish rejasi bilan belgilanadigan o'quv yuklamasi kiritiladi. Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan bo'lgan ilmiy rahbar mehnatiga haq to'lash belgilangan tartibda mehnatga soatbay haq to'lash shartlari bo'yicha bir o'quv yiliga bir magistratura talabasi uchun 50 soatdan oshmagan hajmda, tegishli oliy ta'lim muassasasi xarajatlar smetasida bu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Professor yoki fan doktori beshtagacha, shuningdek dotsent, fan nomzodi va mutaxassisi uchta magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin.

Kafedralar tomonidan taqdim etilgan va oliy ta'lim muassasasi yoki fakultet o'quv-metodik kengashida muhokama qilingan magistratura talabalarining

magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) ilmiy ishlar bo'yicha prorektor taqdimnomasiga asosan magistratura talabalari o'qiyotgan birinchi ikki oyi ichida tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Ilmiy rahbarning majburiyatlari

- tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida muntazam maslahatlar berish;
- tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo'llashda magistratura talabasiga ko'maklashish;
- magistratura talabasining belgilangan kalendar ish rejasi bo'yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertatsiyasi o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;
- dastlabki himoyagacha magistrlik dissertatsiyasiga xulosa berish.

ASOSIY QISM

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar

1. Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tarkibiy qismlaridan iborat bo'lishi kerak:

- titul varaq;
- ikki tilda (o'qitish tili va ingliz tilida) magistrlik dissertatsiyasining qisqacha annotatsiyasi;
- mundarija;
- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa;
- adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar (mavjud bo'lsa).

2. Kirish quyidagilarni qisqacha o'z ichiga olishi lozim:

- magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;
- tadqiqot obyekti va predmeti;
- tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- ilmiy yangiligi;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);
- tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy metodlarning tavsifi;
- tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;
- ish tuzilmasining tavsifi.

3. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi kamida uch bobdan iborat bo'lib, boblar hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- tadqiqot mavzusiga taalluqli boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;
- tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismi bayoni;
- tadqiqot olib borilgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko'rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayoni.

4. Magistrlik dissertatsiyasining Xulosa qismida barcha boblarda qayd etilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa qismi 4 sahifadan oshmasligi kerak.

5. Magistrlik dissertatsiyasiga uning mazmunini bayon etish uchun bevosita zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismining hajmi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim.

6. Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan magistratura talabasi kasb, odob-axloqi qoidalariga rioya etishi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg'on sitatalar keltirishga yo'l qo'ymasligi) lozim.

7. Dissertatsiyada havolalar ayni sahifada matn osti shaklida yoki muallif familiyasi va havola olingan sahifa [Beknazarov:23] ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi. **Dissertatsiyada sohaga oid so'nggi yillarda olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar natijalari aks etgan xalqaro ilmiy bazalarda chop ettirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini qamrab olgan ilmiy maqolalarga iqtiboslar keltirilishi lozim.**

8. Dissertatsiya matni standart varaqda yozilgan bo'lib, unda quyidagi qoidalarga rioya etilgan bo'lishi lozim:

qatorlar oraligi- 1,5sm;

yuqori va pastki hoshiya 2sm, satr boshi chap tomonidan 3 sm, o'ng tomonidan 2sm, xatboshilar orasidagi oraliq 5 yoki 6 belgili.

Magistrlik dissertatsiyasi matnini Microsoft Word matnli redaktorida Times New Roman shriftida yozish tavsiya etiladi.

9. Magistrlik dissertatsiyasining hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan tashqari 70-80 sahifa bo'lishi tavsiya etiladi.

10. Magistrlik dissertatsiyasi magistratura talabasi o'qigan tilda yoki chet tilida (kafedra tavsiyasiga muvofiq) tayyorlanadi. Chet tilida tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasiga davlat tilida yozilgan annotatsiya ilova etiladi. Bunday magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki va rasmiy himoyalari chet tilida o'tkaziladi.

11. Magistratura mutaxassisligi xususiyati hisobga olingan holda magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi fakultet O'quv uslubiy kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

Dastlabki va rasmiy himoyani o'tkazish tartibi

1. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida tashkil etiladi.

Dastlabki himoyaga boshqa kafedralardan, shuningdek boshqa tashkilotlardan mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

Ilmiy maslahatchi tayyinlangan holda dastlabki himoyaga qadar undan magistrlik dissertatsiyasiga xulosa olish ham talab etiladi.

2. Dastlabki himoyaga qadar magistratura talabasi ichki va tashqi taqrizlarni hamda ilmiy rahbar xulosasini olgan, shuningdek dissertatsiya mavzusiga doir kamida 3 ta ilmiy maqola yoki tezisni nasr ettirgan bo'lishi lozim.

Dastlabki himoya yakunlari kafedra yug'ilishi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

3. Ichki va tashqi taqrizchilarni oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrasini tavsiya etadi va ularning ro'yxati ilmiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

4. Taqrizchi vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va tugallanganligi to'g'risidagi xulosani dastlabki himoyadan kamida 3 kun oldin taqdim etish;
- kasb odob-axloqi qoidalarining buzilishi holatlari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on sitata keltirish va boshqalar) aniqlangan taqdirda, ularni taqrizda ko'rsatish.

5. Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, magistratura talabasi tomonidan kasb odob-axloqi qoidalari holatlari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on sitata keltirish va boshqalar) buzilganligi aniqlangan taqdirda, shuningdek ushbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmaganda taqrizchi magistrlik dissertatsiyasini himoyaga qo'yish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa beradi.

6. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrugi bilan tasdiqlangan jadval asosida belgilanadi.

7. Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi oliy ta'lim muassasalarining Davlat yakuniy attestatsiya komissiyasi (keying o'rinlarda komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladi.

8. Magistratura talabasi tomonidan dissertatsiyaning rasmiy himoyasi taqdimot materiallari bilan bayon etilishi va 20 daqiqadan oshmasligi lozim.

9. Rasmiy himoyada komissiya a'zolari magistratura talabasini quyidagi me'zonlar asosida baholaydi.

- magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot mavzusining dolzarbligi va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib bera olishi;
- magistratura talabasining tadqiqotga va vazifalarni hal etisgha mustaqil yondashuvi;
- foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek xorijiy tillardagi adabiyotlar talqinining tog'riligi;
- tadqiqot usullari amaliyotda qo'llanilganligining asoslanganligi;
- olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy ahamiyati;
- magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko'ra bilish qobiliyati;
- magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy qismlaridagi o'zaro mantiqiy bog'liqlikni kuzata bilish malakasi.

10. "Qoniqarsiz" baho qo'yilganda yoki magistrlik dissertatsiyasi rasmiy himoyaga qo'yilmagan taqdirda magistratura talabasi keyingi 3 yil davomida uni qayta himoya qilish huquqiga ega.

11. Magistrlik dissertatsiyalari rasmiy himoyasi natijalari oliy ta'lim muassasasi kengashida muhokama etiladi.

12. Himoya qilingan magistrlik dissertatsiyalari oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

ILOVALAR

1-ilova

Босқичлар	Табірлар	Бажариш мuddати
I босқич	<p>Абитуриентларнинг ҳужжатларини қабул қилиш (Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 18 июндаги 118-сон қарори билан тасдиқланган Олий таълим муассасалари магистратурасига қабул қилиш тартиби тўғрисидаги низоми)</p>	Июль
II босқич	<p>Магистратурага кириш имтиҳонларини ўтказиш (Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 18 июндаги 118-сон қарори билан тасдиқланган Олий таълим муассасалари магистратурасига қабул қилиш тартиби тўғрисидаги низоми)</p>	Август
III босқич	<p>Педагоглар таркибини шакллантириш Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 10 февралдаги 20-сон қарори билан тасдиқланган Олий таълим муассасаларига педагог ходим тарви танлов асосида ишга қабул қилиш тартиби тўғрисидаги низоми ва Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 2 мартдаги 36-сон қарори билан тасдиқланган Магистратура тўғрисидаги низоми)</p>	Август-сентябрь
IV босқич	<p>Магистратура таълим жараёнини ташкил қилиш (Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 343-сон қарори)</p>	Камда икки йил
V босқич	<p>Магистрик диссертацияси мавзусини таллаш ва илмий раҳбарни тайинлаш (Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 2 мартдаги 36-сон қарори билан тасдиқланган Магистратура тўғрисидаги низоми)</p>	Биринчи ўқув йилининг биринчи икки ойи давомида
VI босқич	<p>Магистрик диссертациясини тайёрлаш (Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 2 мартдаги 36-сон қарори билан тасдиқланган Магистратура тўғрисидаги низоми)</p>	Магистратура талабасининг календарий иш режаси бўйича
VII босқич	<p>Магистратура талабаси фаолияти устида мониторинг олиб бориш (Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 2 мартдаги 36-сон қарори билан тасдиқланган Магистратура тўғрисидаги низоми)</p>	Апрель-май
VIII босқич	<p>Магистрик диссертациясининг дастлабки ва расмий ҳимояси (Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 2 мартдаги 36-сон қарори билан тасдиқланган Магистратура тўғрисидаги низоми)</p>	Жадавал асосида

yeva z
tamov
bovna
yeva
eyma
ilovi
tarov
amb
adov
zi

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha kalendar reja

T/r	Ishni bajarish bosqichlari va asosiy tadbirlarning mazmuni	Bajaish muddati	Natijalar(bajarilishi bo'yicha belgilar)
1. Tadqiqotni o'tkazishga tayyorgarlik			
1.			
2.			
2. Ilmiy tadqiqot ishlarini rejalashtirish			
1.			
2.			
3. Tadqiqotni amalga oshirish: materiallarini yig'ish va tahlil qilish (yoki tajriba sinovlarini o'tkazish)			
1.			
2.			
4. Ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini rasmiylashtirish			
1.			
2.			
5. Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga taqdim etish			
1.			
2.			

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

ODILOVA FARANGIZ BOTIROVNA

INGLIZTILINI O‘QITISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA‘LIMNI
QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

70110901 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo‘yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Magistlik dissertatsiyasi Ingliz tili tarixi va
grammatikasi kafedrasida ko‘rib chiqildi va
hino yaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri

f.f.d., dots. Aminova U.R.

“ ” 2024-yil

“Tasdiqlayman”

Fakultet dekani B.Y.Po‘latov

Ilmiy rahbar:

f.f.d., prof. Umarxo‘jayev M.E.

“Ingliz tilini o‘qitishda loyihaga asoslangan ta’limni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasining ta’lim jarayonida, xususan, ingliz tilini o‘qitishdagi nazariy hamda amaliy ahamiyatini o‘rganishga, bundan tashqari ushbu texnologiyaning ingliz tili o‘qituvchisining innovatsion qobiliyatini oshirishdagi o‘rnini tadqiq qilish qaratilgan.

Tadqiqot ishida nafaqat loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi hamda uning nazariy hamda amaliy ahamiyati, balki, ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan pedagogik innovatsiyalar haqida ham atroflicha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Bundan tashqari, ushbu magistrlik dissertatsiyasida tadqiqotchi tomonidan o‘tkazilgan o‘qituvchining innovatsion qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihaning asosiy mazmuni hamda uning natijalari bayon etilgan.

Annotation

for the dissertation “Specific features of project based learning in teaching English”

This master’s dissertation is aimed at studying the theoretical and practical importance of project based learning in the educational process, in particular, in teaching English, as well as the role of this technology in enhancing the innovative skills of English teachers.

The research provides detailed information not only on project based learning technology and its theoretical and practical significance, but also on pedagogical innovations used in English language teaching.

In addition, this master’s dissertation describes the main content and results of the project conducted by the researcher to develop the innovative abilities of the teacher.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. INGLIZ TILINI O'QITISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM TEKNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI	10
1.1. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondoshuvlarning nazariy asoslari	10
1.2. Loyihaga asoslangan ta'lim: nazariya va amaliyot	19
1.3. Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyillari	27
I bob bo'yicha xulosa	37
II BOB. INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	39
2.1. Pedagogik innovatsiyalar hamda ularning ingliz tilini o'qitishda qo'llanilishi	39
2.2. Ingliz tilini o'qitishda yurtimizda ingliz tili o'qituvchilari tomonidan qo'llanilayotgan innovatsion vositalar	47
II bob bo'yicha xulosa	55
III BOB. LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM TEKNOLOGIYASINI QO'LLAGAN HOLDA O'QUVCHILARDNING TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	58
3.1. O'qituvchining innovatsion qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihaning asosiy mazmuni	58
3.2. Tadqiqot natijalari	70
III bob bo'yicha xulosa	80
UMUMIY XULOSA	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	85
ILOVALAR (MAVJUD BO'LSA)	88

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. -13 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-3775 sonli Qaror. -Toshkent: 2018.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5117 sonli Qaror. -Toshkent: 2021.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

4. Agar M. Language Shock: Understanding the culture of conversation. -New York: William Morrow, 1996. -P. 286-290.
5. Anderson W., Corbett J. What do we chat about when we chat about culture? The discourse of online intercultural exchanges. -Tcherepashenets: 2015. -P. 177-178.
6. Bayle A., Youngs B. Patterns of interaction between moderators and learners during synchronous oral discussions online. Texas State University, CALICO, 2013. 216.P.
7. Bowman B.L., McCormick S. Comparison of peer coaching versus traditional supervision effects. The journal of educational research, 2000. -P. 93.

III. Internet manbalar

1. www.dialog-21.ru/achieve-article.asp.param=6255
2. <http://www.1september.ru/rus/2004/05/1/htm>
3. <http://www.ziyonet.uz>.

